

## **KORRUPSIYAGA QARSHI SAMARALI KURASH CHORATADBIRLARI MAMLAKAT TARAQQIYOTI OMILI SIFATIDA**

**Hayitov Jo‘rabek Muhammad o‘g‘li**

Milliy gvardiya Buxoro viloyati bo‘yicha boshqarmasi Katta leytenanti

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada bugungi kunda davlatlar, jamiyatlar taraqqiyotida jiddiy to‘siq bo‘layotgan, davlatlarni yemirib bitirayotgan korrupsiya illatining qisqacha kelib chiqish tarixi, kishilar tafakkuriga singish jarayoni, davlat va jamiyat uchun moddiy, ma‘naviy oqibatlari hamda unga qarshi samarali kurash yo‘llari tahlil qilingan.*

**Kalit so‘zlar:** Davlat boshqaruvi, xavfsizlik, korrupsiya, pora, poraxo‘rlik, ta‘ma, taraqqiyot, manfaat.

### **АННОТАЦИЯ**

*В статье представлена краткая история коррупции, которая сегодня является серьезным препятствием для развития государств и обществ, процесса ассимиляции в мышлении людей, материальных и духовных последствий для государства и общества и эффективной борьбы с ней.*

**Ключевые слова:** государственное управление, безопасность, коррупция, взяточничество, коррупция, вкус, развитие, интерес.

### **ABSTRACT**

*This article provides a brief history of corruption, which today is a serious obstacle to the development of states and societies, the process of assimilation into people's thinking, the material and spiritual consequences for the state and society, and the effective fight against it. were analyzed.*

**Keywords:** public administration, security, corruption, bribery, corruption, taste, development, interest.

### **KIRISH**

Hech kimga sir emaski, jamiyatlarni ich-ichidan yemirib, uning taraqqiyoti, kelajak hayotiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatuvchi korrupsiya illati bugun biz o‘zbeklarning kundalik turmushida ham stixiyali ko‘rinishda, u yoki bu shaklda ko‘p uchrab turadi. Ishni, o‘zi barchaning tilidan tushmaydigan korrupsiya so‘zi qachon, qayerda paydo bo‘lgan, u qanday ma‘nolarda qo‘llaniladi degan savollarga javob izlashdan boshlasak, to‘g‘ri bo‘lar edi nazarimizda. Shuni alohida e‘tiborga olish kerakki, korrupsiya ijtimoiy munosabatlar tizimidagi eng qadimgi hodisalardan biri bo‘lib,

“bu ijtimoiy tuzum qanday bo‘lishidan qat’iy nazar, odamlar hayotini boshqaradigan ijtimoiy tuzum bilan bir xil qadimiy hodisa hisoblanadi”. Tabiiyki, tarixiy jarayon davomida bu hodisa muttasil o‘zgarib boradi, siyosiy va iqtisodiy tartib murakkablashib borishi bilan uning namoyon bo‘lishining yangi shakllari vujudga keladi[1].

Korrupsiya bu — jamiyatni turli yo‘llar bilan iskanjaga oladigan dahshatli illatdir. Mazkur illat demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazadi, inson huquqlari buzilishiga olib keladi, bozorlar faoliyatiga to‘sqinlik qiladi, hayot sifatini yomonlashtiradi va odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa hodisalar ildiz otib, gullashi uchun sharoit yaratib beradi[2].

Ta’kidlab o‘tish o‘rinliki, ushbu zararli hodisa katta va kichik, badavlat va kambag‘al bo‘lishidan qat’iy nazar, barcha mamlakatlarda uchraydi. Ushbu zararli illatni bartaraf etish bo‘yicha jahon hamjamiyati tomonidan bir qator samarali ishlar amalga oshirilayotgan bo‘lsada, hanuzgacha u bartaraf etilmayapti.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Korrupsiya (lot. Corruptere — buzmoq) termini odatda mansabdor shaxslar tomonidan unga berilgan mansab vakolatlari va huquqlardan o‘zlarining shaxsiy manfaatlarini ko‘zlab qonunchilik va ahloq qoidalariga zid ravishda foydalanishini anglatadi[2].

Korrupsiyaning tarixiy ildizlari qadimgi davrlarga borib taqalib, u ehtimol kishilik jamiyati tarkib topgan davrlarda shakllangan, yoki qabilada ma’lum mavqega ega bo‘lish uchun qabila sardorlariga sovg‘alar berish odatidan kelib chiqqan deb taxmin qilinadi. O‘sha davrlarda bu normal holat sifatida qabul qilingan. Biroq davlat apparatining murakkablashuvi va markaziylashuvi korrupsiyaning davlat rivojlanishiga katta to‘siq ekanligini ko‘rsatdi. Korrupsiyaga qarshi kurashgan birinchi davlat sifatida qadimgi Shumerning Lagash shahar-davlati hukmdori Uruiningina tan olinadi[3]. Qadimgi davlatlarni ayniqsa huquqni muhofaza qiluvchi organlarning poraxo‘rliqi qattiq tashvishga solganligi bizgacha saqlanib qolgan ko‘pgina tarixiy manbalardan ma’lum. Korrupsiya uchun indikativ va ko‘pincha shafqatsiz jazolarga qaramay, unga qarshi kurash kutilgan natijalarga olib kelmagan, eng samarali holatda eng xavfli jinoyatlarning oldi olindi, ammo mayda isrofgarchilik va poraxo‘rlik darajasida korrupsiya keng tarqaldi. Korrupsiyaga bag‘ishlangan birinchi “Moddiy farovonlik bo‘yicha ko‘rsatmalar” nomli risola miloddan avvalgi IV asrda Bharata (Hindiston) vazirlaridan biri Kautilya taxallusi bilan ijod qilgan Artha Shastra tomonidan bilan nashr etilgan. Unda u “podshohning mulki bu mulkni

boshqarayotganlar tomonidan oz bo'lsada o'zlashtirib olinmasligi mumkin emas", degan pessimistik xulosaga kelgan[3]. Uning qarashlari Nikolla Makiavellining ijtimoiy-siyosiy qarashlariga juda o'xshash bo'lib, Artha Shastra fikricha, hukmdorlar o'z maqsadlariga erishish uchun qat'iylik va halollik qoidalariga amal qilgan holda, hech bo'lmaganda, faqat o'z sub'ektlariga nisbatan, barcha vositalardan foydalanishlari mumkin. "Suv ostida harakat qilayotgan baliqlarni ichimlik yoki suvsizligini aniqlash mumkin bo'lmagani kabi, davlat ishlarida ishlaydigan davlat xizmatchilari [o'zlari uchun] pul olayotganda ham topilmaydi". Artha Shastra naqlari orasida eng mashhuri bo'lgan ushbu naqlda davlat amaldorining moliyaviy insofsizligini isbotlash qanchalik qiyinligi qiyos qilingan. U "Moddiy farovonlik bo'yicha ko'rsatmalar"da shunday ta'kidlagan edi: "Til uchida topilgan asal yoki zaharni tatib ko'rmaslikning iloji bo'lmaganidek, qirolning mol-mulkidan davlat xizmatchisi ham bir oz bo'lsa-da, foydalanmasligi mumkin emas"[4].

Bunday holni biz qadimgi Misr hayotida ham uchratishimiz mumkin bo'lgan, chunki firavnlarda davrida ulkan byurokratik tizim shakllangan bo'lib, dehqonlar, hunarmandlar va hatto harbiylarga nisbatan qonunbuzarlik, o'zboshimchalik qilishga imkon bergan[5].

Korrupsiya davlatning obro'siga juda qattiq putur yetkazadi. Dunyoning yetakchi dinlarida ham birinchi navbatda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning poraxo'rliqi qattiq qoralanadi. Jumaladan, Injilda "Sovg'alarni qabul qilma, chunki sovg'a ko'rni ko'radigan qiladi va haqiqatni o'zgartiradi" deyilgan bo'lsa, Qu'roni Karimda "Boshqalarning mulkini nohaq yo'l bilan olmangiz va boshqalarga tegishli bo'lgan narsalarni olish uchun o'z mulkingizdan hokimlaringizga pora qilib uzatmangizlar"[6] deyilgan.

Umuman olganda, korrupsiya jiddiy axloqiy, iqtisodiy va siyosiy muammolarga sabab bo'lib, davlat va jamiyat boshqaruvni buzadi, qolaversa, rivojlanishga to'sqinlik qilib, raqobat muhitini inkor qiladi. Oqibatda, adolatsizlik avj olib, inson huquqlari poymol bo'lishi va qashshoqlikni ortishiga olib keladi. Bundan tashqari, biznes yuritish qiymatini oshib, noaniqlik tijorat operatsiyalari ichiga joriy, tovarlar va xizmatlar narxini ham oshishiga, mahsulot va xizmatlar sifatini pasayishiga, davlat muassasalariga ishonchsizlikka hamda bozorlardan samarali foydalanishga sun'iy g'ovlar paydo bo'lishiga olib keladi.

Korrupsiya barcha davlatlarga xos bo'lgan va har doim mavjud bo'lgan butun ijtimoiy boshqaruv tizimining eng daxshatli illati hisoblanib, u faqat turli darajadagi faollikdagi ijtimoiy munosabatlar tizimiga ta'sir qildi, ba'zan shunday faollik darajasiga ega bo'ldiki, u bu munosabatlarning tartibga soluvchisiga aylandi, qonunni

almashtirdi yoki unga parallel ravishda harakat qildi va shu bilan davlat hokimiyatini zaiflashtirdi. Korrupsiyaning bunday xatti-harakati qonuniy hokimiyat egalarini unga qarshi kurashishga undaydi. Korrupsiyaning bunday ekstremal ko‘rinishiga qarshi kurashish ijtimoiy boshqaruv tizimini barqaror rivojlantirishni shakllantirishning eng muhim yo‘nalishiga aylanmoqda[7].

Hukumatlar - iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti xalqaro biznes bitimlarida xorijiy Davlat amaldorlarining poraxo‘rlikka qarshi kurash to‘g‘risidagi Konvensiyasi va Birlashgan Millatlar Tashkilotining korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi hamda ularning milliy qonunlari kabi xalqaro shartnomalar orqali poraxo‘rlikni bartaraf etishda muvaffaqiyatlarga erishdilar. Xalqaro normativ-huquqiy hujjatlarda poraxo‘rlikning har qanday ko‘rinishi jinoyat hisoblanadi va shuningdek, poraxo‘rlik uchun jazo keskin hisoblanadi.

Davlat sektorida korrupsiya holatlarining ko‘p uchrashi tartibga solish va sud tizimlarining ishdan chiqishiga, ular faoliyatining nooqilona yuritilishiga olib keladi. Mablag‘larning noo‘rin qo‘llanilishidan tashqari, turli ta‘sir davlat siyosatining sifatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatib, xususiy sektorda iqtisodiy daromadlar va ishlarning jismoniy shaxslar hamda firmalar uchun samarasiz faoliyat bilan shug‘ullanish, qobiliyat va kuchning behuda sarflanishi hamda iqtisodiy o‘rishni cheklanishiga olib keladi.

Turli davrlarda turli mamlakatlar turli yo‘llar bilan korrupsiyaga qarshi kurashib kelgan, quyida ularning tajribalarini ko‘rib chiqamiz. Hozirda Singapur korrupsiyaga qarshi samarali kurashi bilan jahonda yetakchi hisoblanadi, Singapurning korrupsiyaga qarshi strategiyasi o‘zining qat‘iyligi va izchilligi bilan ajralib turadi, bu “korrupsiyani nazorat qilish mantig‘i” ga asoslangan: “korrupsiyani yo‘q qilishga urinishlar ham rag‘bat, ham imkoniyat yaratadigan sharoitlarni minimallashtirish yoki yo‘q qilish istagiga asoslanishi kerak”[8].

Ushbu illatni tadqiq qilgan bir qator yirik mutaxassislar quyidagi faktorlarni korrupsiyani yuzaga keltiruvchi omillar sifatida ko‘rsatadi.

Ikki xil ma‘noni anglatuvchi qonunlar — ushbu vaziyat huquqni qo‘llovchi mansabdor shaxs tomonidan qonunlarni turlicha qo‘llash imkonini yaratadi. Shuningdek, ayrim mutaxassislar jinoyat, ma‘muriy qonunchilikdagi “vilka” sanksiyalarni ham korrupsiyaga qulay sharoit yaratishi mumkinligi haqida fikr yuritishgan. Ya‘ni, sanksiyaning aniq miqdori yo‘qligi sudyada uni o‘z hohishiga qarab qo‘llashga sharoit yaratib beradi.

Aholi huquqiy savodxonligining pastligi — aholi tomonidan qonunlarni bilmaslik yoki tushunmaslik mansabdor shaxsga o‘zining shaxsiy manfaati yo‘lida qonunlardan foydanishga qulay sharoit yaratadi.

Mamlakatdagi siyosiy vaziyatning notinchligi — mamlakatdagi notinchlik birinchi navbatda aholi ongida hayotda yuksak turmush darajasiga erishishning asosiy usuli qonunga xilof faoliyat bilan bog‘liq, degan mutlaqo axloqqa zid nuqtai nazar shakllanishiga olib keladi. Bu esa o‘z navbatida korrupsiyaga qulay sharoit yaratadi.

✚ Ijro hokimiyatining birligi tamoyilining buzilishi — aynan bitta faoliyatning turli instansiyalar tomonidan tartibga solinishi:

✚ aholining davlatni nazorat qilishdagi sust ishtiroki;

✚ davlat sektoridagi xizmat qilayotgan xizmatchilar daromadlarining xususiy sektorda topish mumkin bo‘lgan daromadlardan kamligi;

✚ iqtisodiyotning davlat tomonidan tartibga solinishi;

✚ inflyasiyaning yuqori darajasi;

✚ mamlakat yuqori boshqaruv organlarining aholidan uzilib qolganligi;

✚ mamlakatdagi diniy va axloq qoidalari.[2]

Jahon mamlakatlarida korrupsiyaga qarshi kurashning quyidagi usullari mavjud.

Ichki nazorat —bu usul boshqaruv apparatining o‘zida nazoratni kuchaytiruvchi tuzilmalar (har xil ichki inspeksiyalar va boshqa nazorat organlari tuzish orqali) yaratishni taqazo etadi. Bu tuzilmaning asosiy vazifasi xodimlarning ichki etiket qoidalariga rioya qilishini nazorat qilishdir. Hozirgi kunda bizning yurtimizda ham bir qator huquqni muhofaza qilish organlarida aynan shu vazifani bajaruvchi ichki tuzilmalar yaratilgan.

Tashqi nazorat — bu usulda ijro apparatidan mustaqil tuzilmalarning mustaqilligini oshirish nazarda tutilib, aynan ushbu tuzilmalar orqali korrupsiyaga qarshi samarali kurash olib boriladi. Ya’ni, sud hokimiyatining maksimal darajada mustaqilligiga erishish ommaviy axborot vositalariga ko‘proq erkinlik berish va h.k.

Saylov tizimi orqali kurashish — demokratik davlatlarda saylangan vakillarni korrupsiya uchun jazolashning asosiy usullaridan biri keyingi saylovlarda unga ovoz bermaslik hisoblanadi. Korrupsiyaga saylovlar orqali ta’sir o‘tkazish eng samarali usul hisoblanadi.[2]

1965 yilda mustaqillikka erishganida Singapur korrupsiya darajasi yuqori bo‘lgan davlat edi. Uni qisqartirish taktikasi bir qator vertikal choralarga asoslangan edi: mansabdor shaxslarning xatti-harakatlarini tartibga solish, byurokratik tartib-qoidalarni soddalashtirish, yuqori axloqiy me’yorlarga rioya qilinishini qat’iy nazorat qilish. Markaziy bo‘g‘in - bu avtonom korrupsiyani tergov qilish byurosi bo‘lib, u

yerda fuqarolar davlat xizmatchilari ustidan shikoyat qilishlari va zararni qoplashni talab qilishlari mumkin. Shu bilan birga, qonunchilik qat'iyashtirildi, sud hokimiyatining mustaqilligi oshirildi (yuqori ish haqi va sudyalarning imtiyozli maqomi bilan), bojxona va boshqa davlat xizmatlari xodimlarini to'liq ishdan bo'shatishni o'z ichiga olgan, pora berganlik yoki korrupsiyaga qarshi tergovda ishtirok etishdan bosh tortganlik uchun iqtisodiy jazo choralari qo'llanildi. Bu iqtisodiyotni tartibga solish, mansabdor shaxslarning ish haqini oshirish va malakali boshqaruv kadrlarini tayyorlash bilan birlashtirildi.

Hozirda Singapur korrupsiyaning yo'qligi, iqtisodiy erkinlik va rivojlanish bo'yicha dunyoda yetakchi hisoblanadi.

Yana bir o'ziga xos korrupsiyaga qarshi samarali kurash yo'liga ega tajriba davlat, Finlandiya bo'lib, uning korrupsiyaga qarshi strategiyasining o'ziga xos xususiyati korrupsiya to'g'risidagi maxsus qonunlarning deyarli yo'qligi edi. Korrupsiya jinoiy huquqbuzarlikning bir qismi sifatida qaralgan va qonunning barcha darajalarida, tartibga solish va boshqa nazorat tizimlarida tartibga solingan. Finlyandiyaning o'ziga xos xususiyati amaldorlar tomonidan pora olish uchun nisbatan yengil jazo edi - jarimadan to'rt yilgacha ozodlikdan mahrum qilish. Urushdan keyingi davrda korrupsiya uchun mahkumlar soni keskin kamaydi - 1945-1954-yillarda 549 kishi pora olganligi uchun sudlangan bo'lsa, 1980-1989-yillarda bunday hukmlar 81 ta, 1990-yillarda esa atigi 38 kishiga chiqarilgan. 1990-yillardan boshlab Finlyandiya xalqaro hujjatlardan foydalanishni boshladi - 1997-yildagi Korrupsiyaga qarshi Yevropa Ittifoqi konventsiyasi, 1998-yildagi OECDning poraxo'rlik to'g'risidagi konventsiyasi, 1999-yildagi Yevropa Kengashining korrupsiyaga qarshi jinoiy va fuqarolik huquqi konventsiyalari, 2003-yil 2003-dekabrda Mexiko shahrida qabul qilingan Korrupsiyaga qarshi BMT konventsiyasi. yili ratifikatsiya qilingan.[9]

Bundan tashqari Shvet tajribasi ham qimmatli bo'lib, Shvetsiyada korrupsiya 19-asrning o'rtalariga qadar gullab-yashnagan. Mamlakatni modernizatsiya qilish oqibatlaridan biri merkantilizmni yo'q qilishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui bo'ldi. O'shandan beri davlat tomonidan tartibga solish firmalarga qaraganda ko'proq uy xo'jaliklariga ta'sir ko'rsatdi, taqiqlar va ruxsatnomalar o'rniga rag'batlantirishga (soliqlar, imtiyozlar va subsidiyalar orqali) asoslangan. Hukumatning ichki hujjatlaridan foydalanish imkoniyati ochildi, mustaqil va samarali adliya tizimi yaratildi. Shu bilan birga, Shvetsiya parlamenti va hukumati ma'murlar uchun yuqori axloqiy me'yorlarni o'rnatdi va amalga oshirdi. Bir necha yil o'tgach, halollik byurokatiya orasida ijtimoiy normaga aylandi. Yuqori mansabdor shaxslarning

maoshi dastlab ishchilarning maoshidan 12-15 baravar oshdi, ammo vaqt o'tishi bilan bu farq ikki baravar kamaydi. Bugungi kunda Shvetsiya korrupsiya bo'yicha dunyodagi eng past ko'rsatkichlardan biriga ega.

So'nggi yillarda O'zbekistonda ham korrupsiyaga qarshi jiddiy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qilgan Murojaatnomasida ta'kidlaganidek, "Jamiyatimizda korrupsiya illati o'zining turli ko'rinishlari bilan taraqqiyotimizga g'ov bo'lmoqda. Bu yovuz baloning oldini olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratib bo'lmaydi, umuman, jamiyatning birorta tarmog'i rivojlanmaydi"

Korrupsiyaga qarshi kurashishning ustuvor huquqiy asoslari qator xalqaro huquqiy normalarda o'z ifodasini topgan bo'lib, ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

✚ 2003 yil 31 oktyabrda qabul qilingan BMT ning Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi;

✚ 2000 yil 15 noyabrda qabul qilingan BMT ning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi Konvensiyasi;

✚ 1999 yil 27 yanvardagi Yevropa Kengashining "Korrupsiya uchun jinoiy javobgarlik to'g'risida" gi Konvensiyasi;

✚ 1999 yil 4 noyabrdagi "Korrupsiyaga uchun fuqarolik huquqiy javobgarlik to'g'risida" gi Konvensiyalari va boshqalar.

O'zbekiston yuqorida ta'kidlangan xalqaro normalardan 2008 yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi, shuningdek, 2010 yilda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti doirasida qabul qilingan Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha Istanbul Harakat rejasini ratifikatsiya qilgan.

Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish hamda ushbu turdagi jinoyatlarni sodir etilishini oldini olishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiya omillarini keltirib chiqarayotgan tizimli muammolarni bartaraf etishga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, amaliy hayotga tatbiq etilmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 iyundagi PF-6013-sonli "O'zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Farmoni qabul qilinib, mazkur Farmon asosida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini, shuningdek, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning

tizimli sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish choralarinin samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat va boshqa dasturlarni shakllantirish va amalga oshirish maqsadida Korrupsiyaga qarshi kurash Agentligi tashkil etildi.

Farmon bilan, Agentlikka Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tarmog'ining Istanbul harakatlar dasturi doirasidagi ishlar hamda ishlab chiqilgan tavsiyalarning amalga oshirilishini ta'minlash, BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi va O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi boshqa xalqaro shartnomalari qoidalarining bajarilishi bilan bog'liq chora-tadbirlarni amalga oshirish hamda ushbu yo'nalishdagi faoliyatni muvofiqlashtirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy koordinatori vazifa va vakolatlari, shuningdek fuqarolik jamiyati institutlari bilan birgalikda hududlar, iqtisodiyot tarmoqlari va boshqa sohalar kesimida korrupsiyaning darajasini baholovchi milliy indeks tuzishni tashkillashtirish yuklatildi.

## **XULOSA**

Shuningdek, mazkur Farmon asosida quyidagi chora-tadbirlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish belgilanligi ahamiyatlidir, xususan:

➤ 2020–2021 yillarda barcha davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi ("komplayens-nazorat") ni bosqichma-bosqich joriy etish;

➤ davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi faoliyati, shuningdek ushbu sohadagi davlat va boshqa dasturlar samaradorligini monitoring qilish hamda baholash imkonini beruvchi E-Anticor.uz elektron platformasini joriy etish;

➤ korrupsiya holatlari haqida xabardor qilish imkonini beruvchi maxsus mobil dasturiy ta'minotni joriy etish.[10]

Mamlakat korrupsiyaga qarshi samarali kurashmas ekan, barcha tizimlar ishdan chiqib boraveradi, kishilar ongida kelajakka bo'lgan ishonchsizlik ortib, jamiyat inqirozga yuz tutadi, fikrimizcha eng samarali kurash o'zimizdan boshlanadi, o'zimiz o'zgarmay turib, o'zimiz isloh bo'lmay turib jamiyatni inqirozdan qutqarib qololmaymiz. Biz ma'suliyatni o'z zimmamizga olishga, pora bermaslik va olmaslikka, haqiqat uchun kurashishga harakat qilishimiz, o'z harakatlarimizda sobit bo'lishimiz zarur.



## REFERENCES

1. Хрестоматия государства и права зарубежных стран. Древность и Средние века / сост. В. А. Томсинов. -М.: Зерцало, 1999; 2004. — С. 56.
2. <https://minek.rk.gov.ru/ru/structure/539> – Коррупция: понятие, виды, история появления и развития
3. <https://anticorruption.uz/en/item/what-is-corruption> - O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurash agentligi
4. <https://ru.wikipedia.org/wiki/Коррупция> - korrupsiya tushunchasi
5. [https://www.brookings.edu/wp-content/uploads/2016/07/chapter-one\\_-corruption-sh-9780815727910.pdf](https://www.brookings.edu/wp-content/uploads/2016/07/chapter-one_-corruption-sh-9780815727910.pdf) –One the gift in antiquity. Exchange, Favor, and Sacrifice, from Hammurabi to the Bible. P. 21
6. Qur'oni Karim. Vaqara surasi, 188-oyat.
7. <https://minek.rk.gov.ru/ru/structure/539> – Коррупция: понятие, виды, история появления и развития
8. ВЦИОП — Сингапурская стратегия борьбы с коррупцией
9. Институт Европы РАН
10. [http://www.ombudsman.uz/oz/docs/ozbekistonda-korrupsiyaga-qarshi-kurashish-sohasida-davlat-siyosatini-takomillashtirtish-masalalari#\\_ftn1](http://www.ombudsman.uz/oz/docs/ozbekistonda-korrupsiyaga-qarshi-kurashish-sohasida-davlat-siyosatini-takomillashtirtish-masalalari#_ftn1)